

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori 9-bandida belgilangan topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar bo'yicha 2024 yil 14-15 oktyabr kunlari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti negizida bo'lib o'tgan **"Oziq-ovqat xavfsizligi: Global va milliy muammolar» (Food Security: Global and national Problems)"** mavzusida VI xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman

**HISOBOTI**

### **1. Anjuman mavzusi:**

"Oziq-ovqat xavfsizligi: Global va milliy muammolar» (Food Security: Global and national Problems)",

"Продовольственная безопасность: глобальные и национальные проблемы (Food Security: Global and national Problems)",

"Food Security: Global and National Problems"

### **2. Anjuman maqomi:** Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman

**3. Ilmiy va ilmiy-texnika anjumanni o'tkazish uchun asos bo'lgan O'zR Prezidenti farmoni, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari yoki boshqa manbalar:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son buyrug'i asos bo'ladi.

### **4. Anjumanning ilmiy yo'nalishi, maqsad va vazifalari:**

Anjumanning ilmiy yo'nalishi quyidagilardan iborat:

#### **1. Oziq ovqat xavfsizligida bioxilma-xillikning o'rni**

- Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish;
- Hayvon dunyosini xilma-xilligini asrash va undan ratsional foytalanish;
- Antropogen transformatsiya va hayvonot dunyosinining muhofaza qilish muammolari;
- Nodir va noyob hayvonlarni alohida muhofaza qilish hududlarini tashkil qilish;
- Osimliklar dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish;
- Yaylovlar, pichanzorlardan samarali va oqilona foydalanish;

- Ziravor, dorivor oziq-ovqatbob va texnik o'simliklardan oziq-ovqat mahsulotlarni ishlab chiqarishda samarali foydalanish;

## **2. Oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini ta'minlashda biologiyaning o'rni**

- Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishning fiziologik va agrotexnologik asoslari

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash;
- Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishning innovatsion usullari;
- Qishloq xo'jaligi ekinlari kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurashish;

- Qishloq xo'jaligida agrobiznes va agrologistika muhitini takomillashtirish;

## **3. Oziq-ovqat xavfsizligi biotexnologiyasi va genetikasi**

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash biotexnologiyasi;
- Oziq-ovqat chiqindilarini qayta ishlash va ozuqalar biotexnologiyasi;
- Oziq-ovqat qiymatini oshirish biotexnologiyasi;
- Oziq-ovqat sanoatida hujayra va gen muhandisligidan foydalanish istiqbollari;

- Oziq-ovqat sanoatida zamonaviy genetika va seleksiyaning roli;

## **4. Ovqatlanish va oziqlanish xavfsizligi.**

- Ovqat hazmi tizimi va hazm jarayonlari;
- Tabiiy maxsulotlar asosida oziq-ovqat maxsulotlari sifatini oshirish;
- Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizlik ko'rsatkichlari;
- Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash;
- Hayvonlarni oziqlantirishda ozuqaviy qo'shimchalardan foydalanish istiqbollari;

- Qishloq xo'jaligida ozuqa bazasini mustahkamlash;

## **5. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda kimyoviy tadqiqotlar.**

- Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda noorganik moddalar va materiallar;
- Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda analitik usullar;
- Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda organik moddalar va materiallar;
- Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda kimyoviy texnologiya yutuqlari;
- Oziq-ovqat sanoatida fizik-kimyoviy tadqiqotlar;

*Maqsadi:* Turli mamlakatlar olimlari o'rtasida ilmiy aloqalarni o'rnatish, tadqiqotlarda innovatsion yondashuvlar borasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, ilmiy yutuqlar, dolzarb muammolar va istiqbolli yo'nalishlarini muhokama qilish, amaliyotga joriy etish va oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi keyingi izlanishlar uchun zamonaviy istiqbolli yo'nalishlarni hamkorlikda belgilash hamda iqtidorli yosh olimlarni istiqbolli ilmiy yo'nalishlarga jalb qilishdan iborat.

### **Anjuman vazifalari:**

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha milliy va xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlari hamda O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligi konsepsiyasi masalalari va bu yo'nalishdagi ishlarni kelajakda kengaytirish va integrasiyalash;

xavfsiz ovqatlanishni amalga oshirish maqsadida bu sohadagi milliy an'analarni tiklash va ularni ovqatlanish madaniyatiga oid zamonaviy fan yutuqlari bilan boyitish;

chorva mollarini oziqlantirishni optimallashtirish orqali chorva mahsulotlarini miqdor va sifat ko'rsatkichlarini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish;

Klasterlar tizimi - oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning innovasion asosi ekanligi hamda qishloq ho'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va biologik qiymatini oshirishning zamonaviy holatini tahlil qilish;

O'simliklarning tabiiy zaxiralari va hayvonlarning faunasini o'rganish, muhofaza qilish, dorivor va ozuqabop o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashning intensiv texnologiyalarini ishlab chiqish hamda zararkunandalardan himoya qilishning dolzarb masalalarini tahlil qilish;

Qurg'oqchil mintaqa tabiiy resurslaridan barqaror foydalanish orqali iqlim o'zgarishini yumshatish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga oid tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish;

qurg'oqchil mintaqalarida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda kadrlar salohiyatini oshirish.

Tabiat va inson uyg'unlashuvida ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning dolzarb masalalari yoritish hamda ilmiy anjuman ma'lumotlaridan soha olimlarining ilmiy tadqiqot ishlarida, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanish, o'quv jarayoniga keng tatbiq qilish imkoniyatini tahlil qilish.

## **5. Muhokama qilinadigan muammolar.**

Konferensiyada bioxilma-xillik – oziq ovqat xavfsizligining muhim, oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishning fiziologik, biokimyoviy va agrotexnologik asoslari, oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini saqlashda zamonaviy biotexnologiyalardan foydalanish va genetika yutuqlarini qo'llashning ahamiyati, oziqlanish va ovqat hazm qilish sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar hamda ularning dolzarb masalalari, oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini ta'minlashda kimyoviy tadqiqotlarning o'rni, O'zbekiston qurg'oqchil mintaqalarida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda kadrlar salohiyatini oshirish istiqbollari kabi masalalar muhokama qilindi va tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

Konferensiyada quyidagi muammolar muhokama qilindi:

- Har xil soha mutaxassislari (botanika, fiziologiya, biokimyo, biotexnologiya, ekologiya, tibbiyot, agronomiya, zootexniya, veterinariya va h.k.)ni oziq-ovqat xavfsizligi muammolariga oid fundamental izlanishlarni o'zaro hamkorligini ta'minlash, amalga oshirish va bu yo'nalishdagi ishlarni kelajakda kengaytirish va integrasiyalash;

- Oziq-ovqat xavfsizligining milliy va xalqaro me'yorlari: ovqatlanish va ovqat hazm qilishning dolzarb masalalariga oid zamonaviy fan yutuqlari bilan boyitish;

- chorva mollarini oziqlantirishni optimallashtirish orqali chorva mahsulotlarini miqdor va sifat ko'rsatkichlarini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari;

- Klasterlar tizimi - oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning innovasion asosi ekanligi hamda qishloq ho'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va biologik qiymatini oshirishning zamonaviy holati;
- Foydali o'simliklarning tabiiy zaxiralarini o'rganish, muhofaza qilish, yetishtirish va qayta ishlashning intensiv texnologiyalarini ishlab chiqish hamda zararkunandalardan himoya qilishning muhim masalalari;
- Qurg'oqchil mintaqa tabiiy resurslaridan barqaror foydalanish orqali iqlim o'zgarishini yumshatish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash;
- qurg'oqchil mintaqalarida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda kadrlar salohiyatini oshirish;
- Tabiat va inson uyg'unlashuvida ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning dolzarb masalalari

**6. O'tkaziladigan anjumanning Davlat ilmiy-texnik dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlari bilan bog'liqligi:** Anjuman respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Davlat ilmiy-texnik dasturlarini amalga oshirish, ilm-fan yo'nalishida xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va yosh olimlarni sohaga jalb qilish hamda ularni sohaning yetuk mutaxassisleri bilan aloqalarini yanada mustahkamlash borasida ahamiyatga egadir.

**7. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik.**

-Zamonaviy oziq-ovqat xavfsizligiga bag'ishlangan tadqiqotlarni bajarishda, muammolarni hamkorlikda bartarafng samaradorligini oshirish va reytingi yuqori AQSH ning Kolorado universiteti, Italiyaning Boloniya universiteti, Xitoyning Pekin Texnologiya va biznes universiteti, Serbiyaning Yadro va mineral xomashyo texnologiyalari instituti, Rossiyaning Ufa Fan va texnologiyalar universiteti, Moskva davlat universiteti, Novosibir davlat texnika universiteti, Pokistonning Quaidi-A'zam universiteti Oltoy davlat universiteti tajribalarini mukammal o'rganish;

- amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarga doktorant, magistrant va iqtidorli talabalarni jalb etish;

- xalqaro hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish maqsadida ilmiy tadqiqot institutlari Rossiya Sog'liqni saqlash vazirligi Endokrinologiya ilmiy tekshirish instituti, Moskva davlat universitetining OOO «НИИ Митохондриологии МГУ», Rossiyaning OOO ИПК «Берег», OOO «Фитодиагностика» tashkilotlari, AQSHning "VetVittles" kompaniyalari hamda Qirg'iziston Fanlar akademiyasi bilan hamkorlik ishlarini kuchaytirish.

-Xorijiy olimlar bilan hamkorlikda oziq-ovqat xavfsizligini taminlash, qishloq xo'jaligi, seleksiya, logistika, qayta ishlash sanoati, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechimiga bag'ishlangan xalqaro loyihalarni tayyorlash.

-Konferensiyada ishtirok etgan mahalliy va horijiy olimlar tomonidan keltirilgan tavsiyalar va ishlanmalarni ta'lim, fan va boshqaruv sohalarida qo'llash mexanizmlari amaliyotga tadbiiq etish.

- Anjumanda ma'ruza qilingan quydagi mavzularda "Oziq-ovqat xavfsizligi va tirikchilik strategiyalarida quruq ekotizimlarning ahamiyati va zaif tomonlari: ijtimoiy-ekologik-tizim istiqboli", "Urug'larning iqlim o'zgarishiga chidamliligini oshirish", "Milliy taomlar tarkibidagi makro va mikroelement tarkibining bolalarda

temir tanqisligini oldini olishdagi ahamiyati” “Turli tipdagi yaylovlarning holati va degradatsiyaningoldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish” mavzularda ilmiy loyihalar tayyorlash.

-professor-o‘qituvchilar, doktorant va magistrantlarning ilmiy-ijodiy faolligini oshirish va tadqiqot davomida nufuzli universitetlar bilan hamjihatlikda fikr almashib faoliyat yuritishga sharoit yaratish.

- xalqaro ilmiy-amaliy anjuman miqyosida ilmiy-tadqiqotchilar uchun samarali tadbir tashkil etish maqsadida biologiya, kimyo, qishloq xo‘jaligi kabi oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga yonaltirilgan soha vakillarini ilmiy salohiyatini yaxshilashga erishish;

- Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari qamrovini kengaytirish, ilmiy ish natijalarini nashr etilishi va manbalar bazasi joriy etilishini ta‘minlash.

Shuningdek anjumanda O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarda olib borilayotgan Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash yo‘nalishidagi tadqiqotlarning nazariy-uslubiy va amaliy ahamiyatga molik natijalari muhokama qilindi. Xorijiy mamlakat olimlari bilan ilmiy-amaliy tajriba almashinildi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash yo‘nalishidagi tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy asoslari takomillashtirildi. Shuningdek, Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash oziq ovqat xavfsizligida bioxilma-xillikning o‘rni, Oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini ta‘minlashda biologiyaning o‘rni, Oziq-ovqat xavfsizligi biotexnologiyasi va genetikasi, Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash biotexnologiyasi, Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda kimyoviy tadqiqotlar hamda mavjud turizm sohalarida innovatsion hamkorlikni yanada rivojlantirish borasida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**8. Anjumanda yosh olimlar, mutaxassislar, doktorantlar, tayanch doktorantlar va magistrantlarning ishtirok etishi:** Anjumanda biologiya, qishloq ho‘jaligi, texnika, ekologiya, sog‘liqni saqlash fan sohalarida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassislar, yosh olimlar, doktorantlar, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, umumiy o‘rta va o‘rta-maxsus, professional ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari, magistrantlar va iqtidorli talabalar olib borayotgan tadqiqotlarining natijalari, amaliyotga tadbiriq etilayotgan ishlanmalari, ilg‘or innovatsion g‘oyalarini o‘zida ifoda etgan ma‘ruza, maqola va tezislari bilan ishtirok etishdi (ularning umumiy soni 452 ta, jumladan xorijdan 86 ta). Mazkur xalqaro anjumanga mahalliy mutaxassislar, sohalarning malakali kadrlari bilan bir qatorda xorijdan shu jumladan AQShning Kolorado universiteti professori Ojima Denis, Serbiyaning Belgrad universiteti professori Dragana Randelovich, Italiyaning Boloniya universitetidan Daniyelo Alberoni, Pekin Texnologiya va biznes universiteti professori Aynas Aydarxan, Pokistonning Quaidi-A‘zam universiteti professori Muhammad Zafar, Rossiya FA Endokrinologiya ilmiy tekshirish instituti Vivariy mudiri Yegor Ivlev, Moskva davlat universiteti olimlari Yekaterina Kushner, Maksim Lovat, Novasibir davlat texnika universiteti olimlari Yekaterina Litvinova, Viktoriya Bes, Polina Dubovskaya, Sayeydi Arsalan Ufa fan va texnologiyalar universiteti professori Maya Ishmuratova, Qirg‘izistonning O‘sh davlat universiteti professori Taasilkan Jumabayeva, Tojikiston pedagogika universiteti professori Tohirjon Sattorov kabi oliy ta‘lim hamda ilmiy tekshirish muassasalari olimlar va soha mutaxassislari ishtirok etishdi.

**10. Anjumanni o'tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarining ishtiroki:** Anjuman ishida respublikamizda faoliyat yuritayotgan qator soha korxona va tashkilotlarining ishtiroki ta'minlandi, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq ho'jaligi vazirligi, Vetrinariya qo'mitasi, Mamlakatimizdagi nodavlat Oliy ta'lim musasasi vakillari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tizimi hodimlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi xuzuridagi Mikrobiologiya ilmiy tadqiqot instituti, Genetika va o'simliklar ekperimental biologiyasi instituti, O'zMU xuzuridagi Biofizika va biokimyo instituti hamda soha oliy o'quv yurtlaridan soha mutaxassislari ishtirok etishdi.

2024 yil 14 oktyabr soat 11:00 da konferensiyaning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasining yalpi majlis kirish so'zida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori, professor, Oliy Majlis Senati a'zosi Xalmuradov Rustam Ibragimovich, Samarqand viloyati hokimining Samarqand viloyati hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari. Xudayberdiyev Shunqor Farmonovich, O'zbekiston Milliy universiteti professori, biologiya fanlari doktori, professor Zaripov Bakriddin nutq so'zladi.

Konferensiyaning yalpi majlisida jami 6 nafar soha bo'yicha mutaxasislarning oziq-ovqat xavfsizligining dolzarb masalalariga bag'ishlangan ma'ruzalari tinglandi. Shular jumlasidan AQShning Kolorado universiteti professori Ojima Denis "The importance and vulnerabilities of dryland ecosystems in food security and livelihood strategies: a social-ecological-system perspective", Serbiyaning Belgrad universiteti professori Dragana Randelovich "Community seed banks of balkan as a tool for food security and climate change resilience", Ufa fan va texnologiyalar universiteti professori Maya Ishmuratova "Эколого-биологические и антиоксидантные характеристики *Berberis integerrima* bunge и *Crataegus pseudoheterophylla* Subsp. *turkestanica* (Pojark.) K. I. Chr. в Зарафшанском национальном природном парке" mavzularida bir qator xorijiy olimlar o'zlar qiziqarli ma'ruzalari bilan hamda Mamlakatimizdan Qarshi davlat universiteti professori Sh. Kurbanov "Ultra qayta ishlangan taomlardan foydalanishda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash" va O'zbekiston milliy universiteti professori B.Zaripov "Oziq-ovqat xavfsizligi yo'nalishidagi zamonaviy fiziologik tadqiqotlar" mavzularida ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.

Konferensiyaning birinchi kuni ya'ni 14 oktyabrda sho'balardagi ma'ruzalar soat 14:00 da sho'balar uchun belgilangan auditoriyalarda sho'balarning ma'ruzalari boshlandi. Mazkur "Oziq-ovqat xavfsizligi: Global va milliy muammolar» (Food Security: Global and national Problems)" mavzusida VI xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani "Oziq ovqat xavfsizligida bioxilma-xillikning o'rne", "Oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini ta'minlashda biologiyaning o'rne", "Oziq-ovqat xavfsizligi biotexnologiyasi va genetikasi", "Ovqatlanish va oziqlanish xavfsizligi" va "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda kimyoviy tadqiqotlar" nomidagi sho'balarda davom etdi. Konferensiyaning sho'balarida sohaga tegishli yetuk horijiy olimlardan quyidagilar o'zlarining olib borayotgan tadqiqotlari va erishilgan natijalari bo'yicha ma'ruza qildilar. Pokistonning Quaidi-A'zam universiteti, professori Z.Muhammad, shuningdek Pokistondan Majeed S, Muhammad Rizwan Khan, Qirg'izistondan T.T.

Jumabayeva, I.T. Mirzabayeva, N.Z. Sattarov, R.A. Jarekinbayeva, Rossiyan V. Ryabinina, A.Saeidi, L.V. Gromova, Dubovskaya, Tojikistondan M.Sharipov, S.B. Karimov, A.R. Kurbanov, A.G. Goipov, A.A. Vaxobov, N.S. Kurbanova va I.A. Bobozodalar qiziqarli va bugungi kuddagi oziq-ovqat xavfsizligiga bag'ishlangan ma'ruzalari bilan chiqish qildilar. Shu bilan birgalikda konferensiyaning birinchi kunida sho'balarda mamlakatizmizning olimlaridan 23 nafari bugungi kundagi dolzarb bo'lgan oziq-ovqat xavfsizligiga bag'ishlangan ma'ruzalari bilan chiqish qildilar.

Anjumanning ikkinchi qismi 15 may kuni soat 9:00 da sho'ba yig'ilishlari davom etdi, ikkinchi kunida sho'balarda horijiy olimlardan 5 nafar va mamlakatizmizning olimlaridan 17 nafari bugungi kundagi dolzarb bo'lgan oziq-ovqat xavfsizligiga bag'ishlangan ma'ruzalari bilan chiqish qildilar.

Anjumanning yopilishiga bag'ishlangan yig'ilishda Italiyaning Boloniya universitetidan Daniyelo Alberoni, Pekin Texnologiya va biznes universiteti professori Aynas Aydarxan, Moskva davlat universitetidan dotsent Ye.A. Kushner, Novosibir davlat texnika universitetidan dotsent Ye.A. Litvinova, dotsent V.D. Bets, P.V. Pavlov O'sh davlat universitetidan professori T.T. Jumabayeva, Tojikiston pedagogika universiteti professori T. Sattorovlar hamda mamlakatizmizning olimlaridan Xalqaro molekulyar allergalogiya markazi direktorining ilmiy ishlari bo'yicha direktori o'rinbosari professor G. Djambekova, Samarqanda davlat tibbiyot universitetidan professor S.Q.Rasulov, 'zR FA Genetika va o'simliklar ekperimental biologiyasi instituti, professori F.N. Kushanovlar oziq-ovqat xavfsizligiga bag'ishlangan ma'ruzalari bilan qatnashdilar va anjuman so'ngida sho'balarning xulosasiga asosan eng mazmunli ma'ruza va faol ishtiroki uchun minnatdorchilik bildirildi.

Anjumanning so'nggi kunida konferensiya faoliyati yuzasidan yakuniy muhokamalar o'tkazildi. Konferensiyaning yuqori darajada tashkil etilganligi, olim va mutaxassislarining anjumanda yuqori darajada faol ishtirok etganligi, taqdim etilgan ma'ruzalarning yuqori saviyada va keng qamrovli ekanligi ta'kidlandi. Ushbu anjuman xorijning nufuzli ilmiy markazlari va Respublikamiz olimlarining sohada erishayotgan ilmiy natijalari, mavjud muammolar va tadqiqot yo'nalishlari borasidagi ilmiy hamkorligi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi, ularni ko'proq o'tkazish hamda yosh tadqiqotchilarni kengroq jalb etish lozimligi belgilandi.

#### **Anjuman yakunlari bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar berildi.**

1. Tabiiy biotsenozlarda bioxilma-xillikni saqlash, kamyob, noyob va dorivor ekinlar kasalliklari zararkunandalaridan himoya qilishning uyg'unlashgan tizimidan keng foydalanish, bunda biologik himoya tizimidan ustuvor foydalanishga erishish.

2. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga o'g'itlarning ekologik xavfsizligini ta'minlovchi me'yorlarning qo'llanilishini, ekologik toza mahsulot yetishtirishda organik dehqonchilik tizimini keng qo'llash orqali jahon bozoriga oziq-ovqat mahsulotlarini ko'proq chiqarishga erishish.

3. Qurg'oqchil mintaqalarda kam suv talab etiluvchi ekinlarni tabiiy resurslar ichidan tanlab joriy etish va bunda suvni tejash masalasining ustuvorligini ta'minlash.

4. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda meva-sabzavot ekinlari yetishtirishga ixtisoslashgan klasterlar tizimida agrologistik tarmoq va marketing

tizimining shakllanmaganligi, yetishtirilgan mahsulotni saqlash, qadoqlash va yetkazib berish sohasining takomillashtirilishi zarurligi.

5. Sabzavotchilikka ixtisoslashgan klasterlar samaradorligini oshirishda ekiladigan sabzavotlarning yangi, mahalliy sharoitga mos, kasallik va zararkunandalarga chidamli navlari, duragaylarini yaratish, istiqbolli ekinlar nav urug'lari genofondini yaratish, agrotexnikasini takomillashtirish;

- yangi istiqbolli, eksportbop sabzavotlar assortimentini oshirish hisobiga klasterlar eksport salohiyatini oshirish;

- yangi tizim bo'yicha jahon talablariga javob beruvchi mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash maqsadida texnikum-institut-universitet-klaster o'rtasida uzviy hamkorlikni barqaror rivojlantirishni ta'minlash.

6. Bog'dorchilikda an'anaviy usullardan to'liq voz kechgan holda, tomchilatib sug'orish asosidagi intensiv bog'lar barpo etish asosida tog' va tog' oldi bog'dorchiligini tashkil etishni jadal rivojlantirish.

7. Eksportga yo'naltirilgan anorchilik, yong'oq, pista, bodom va rezavor mevachilik maydonlarini kengaytirish. Uzumchilik, anorchilikda eksportga yo'naltirilgan navlar va ular agrotexnikasi rivojlantirish. Tashqi bozorga yo'naltirilgan qadoqlash, saqlash va qayta ishlash texnologik jarayonlarni modernizatsiyalash.

8. Respublika eksport salohiyatida muhim o'rin tutuvchi issiqxonalar xo'jaligi samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etish:

- issiqxonada zamon talabiga mos kasallik, zararkunandalarga chidamli nav va duragaylar genofondini tashkil etish;

- issiqxona polizchiligi uchun mos keluvchi qovun va tarvuz navlari yaratish, tanlash, agrotexnikasini ishlab chiqish;

- issiqxona uchun mos rezavor ekinlar turlari, sabzavotlar, ko'kat sabzavotlar yetishtirishni jadallashtirish;

- issiqxona tizimi uchun kerakli bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda tubdan isloh qilish, ilmiy uslubiy ta'minot masalalarini jiddiy kuchaytirish.

9. Noqulay sharoitli yerlarda dorivor va oziq-ovqat beruvchi o'simliklarni yetishtirish. Bunda dehqonchilikdan chiqib ketgan va eroziyaga uchragan yerlarda o'sha muhitga moslashgan va chidamli (dorivor va oziq-ovqat mahsulot beruvchi) o'simliklarni yetishtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish lozim.

10. Xorijiy davlatlardan keltirilayotgan o'simlik mahsulotlarini O'zbekistonda yetishtirish muammolari mavjud. Bunda xorijdan keltirilayotgan don mahsulotlari, dori darmonlar, oziq-ovqat mahsulotlarini O'zbekistonda yetishtirish imkoniyati mavjud.

11. O'zbekistonda yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarini agrologistikasini yo'lga qo'yish. Bu mahsulotni yetishtirish, sifatli saqlash (ko'plab omborxonalar qurish, radioaktiv nur bilan mahsulotni qayta ishlash), qayta ishlash (klaster tizimini tashkil qilish, mahsulotlarni qayta ishlaydigan kichik korxonalarni, asbob-uskunalarini ko'paytirish) va eksportga (davlat tomonidan xorijga to'g'ridan-to'g'ri sotadigan firmalarni ko'paytirish yoki xorijiy firmalarni (qayta ishlovchi va jaxon bozoriga olib chiquvchi) bozorlarga kiritish) yo'naltirish imkoniyatlarini beradi.

12. Qishloq xo‘jaligi ekinlari va ular hosilini zararkunanda va hasharotlardan himoya qilishda biologik himoya qilish usullaridan foydalanish.

13. Qishloq xo‘jaligi ekinlari hosili jumladan, uzumchilik va bog‘dorchilik ekinlari maydonlari va seleksiya urug‘chiligi institutlari ilmiy tadqiqot tajriba maydonlarida hamda asalarichilikda kurkunaklarning va umumiy qushlarning zararini kamaytirish.

14. O‘zbekistonda aholi sonining o‘ssishi, bu asosida oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojning tobora ko‘tarilishi, ekin maydonlarining tobora qisqarishi, hududimizda qishloq-xo‘jaligi uchun yaroqsiz bo‘lgan (toshloq, sho‘rxok, gipsli va shag‘alli joylar) va eroziyaga uchragan yer maydonlaridan unumli foydalanish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yoki dorivor o‘simliklarni yetishtirish o‘ta muammoli bo‘lib xisoblanadi. Bu O‘zbekiston hududida yaroqsiz (toshloq, sho‘rxok, gipsli va shag‘alli joylar) bo‘lgan yer maydonlarida sug‘orish va o‘g‘itlashning yangicha innovasion tizimini shakllantirish holda, tomchilatib sug‘orish asosida intensiv bog‘lar, plantasiyalar barpo etish va jadal rivojlantirish imkoniyatini beradi.

15. O‘zbekiston hududiga chet mamlakatlardan keltirilgan, o‘zida yangi kompleks foydali va sifatli xususiyatlarini namoyon etadigan (oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi, farmasevtika), mahsulotlari jahon bozorida qimmat narxlanadigan o‘simliklarni O‘zbekiston sharoitiga mahalliyashtirish, introduksiya etish va ular ustida seleksiya ishlarini olib borish muammosi mavjud. Buning uchun jahon bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda foydali va sifatli xususiyatlarini namoyon etadigan o‘simliklarni tanlash, iqlimlashtirish, ko‘paytirish, saqlash va realizasiya qilish masalalari bo‘yicha, ilmiy uslubiy ishlarni olib borish hamda oliy ta‘limning agrobiotexnologiya yo‘nalishlari bilan fermer xo‘jaliklari tizimida shakllantirish (integrasiya) hamda kerakli bo‘lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimini yaratish kerak.

16. Ma‘lumki, ovqatlanish - bu insonning tashqi muhit bilan bog‘liqligini ta‘minlovchi muhim omillardan biridir. Oziq-ovqat xom ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta‘minlash aholi salomatligini va uning genofondini belgilaydigan asosiy yo‘nalishlardan biridir. Qishloq xo‘jaligi va sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi insonlarda zararli suyuq va gazsimon chiqindilarning ko‘payishiga olib kelgan. Qishloq xo‘jaligida kimyoviy va biologik pestisidlar qo‘llanilishi oziq-ovqat sifatni sezilarli darajada pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi kunda oziq-ovqat ishlab chiqarishi sanoatining asosiy muammolaridan biri EKO mahsulot ishlab chiqarish hisoblanadi. Ma‘lumki, genetik modifikasiya asosida hosil qilingan organik mahsulotlar ko‘plab ishlab chiqilmoqda va inson populyasiyasida onkologik kasalliklar, qandli diabet kabi kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun bugungi kunda Ekologik toza-kimyoviy kam ishlangan, genetik modifisirlanish texnologiyalari kam ishlatilgan organik moddalarni ishlab chiqish asosiy muammo hisoblanadi.

Bu borada oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishda, yuqori innovasion, xavfsiz texnologiyalarni qo‘llash, kimyoviy qayta ishlash texnologiyalarini kamaytirish va asta-sekin biologik qayta ishlash texnologiyalarini bosqichma-bosqich kiritish; oziq-ovqat sifatini chuqur tahlil qiladigan texnologiyalarni tashxis laboratoriyalarini rivojlantirish, ekologik xavfsizligi va sifatini aniqlaydigan sertifikatni standartlarini joriy etish zamon talabi hisoblanadi.

17. Organizmning normal fiziologik jarayonlarining me'yorida kechishini ta'minlash uchun eng avvalo to'g'ri ovqatlanishni yo'lga qo'yish eng muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Me'yoridagi kunlik ovqat rasionini tuzishda ham oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibiga jiddiy e'tibor qaratishimiz bugunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi, chunki qayta ishlovlar asosida tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlariga turli hildagi qo'shimchalar qo'shib kelinmoqda.

So'nggi paytlarda oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini, ta'mini, hidini, ko'rinishini, saqlashni, ozuqaviy qiymatini va energetik qiymati kabilarni yaxshilash maqsadida mamlakatimizda, qolaversa butun dunyoda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashda qo'llaniladigan ruxsat etilgan ozuqaviy qo'shimchalarning me'yoridan ortiq qo'llanilishi va ruxsat etilmagan ozuqaviy qo'shimchalarning ma'lum darajada qo'llanilishi natijasida tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilgan organizmlarda me'yoriy fiziologik ko'rsatkichlarning izdan chiqishiga olib keladi va natijada turli patologik jarayonlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Buning uchun oziq-ovqat mahsulotlariga qayta ishlov berishda qo'shiladigan ozuqaviy qo'shimchalarning me'yorida qo'shilishi, ya'ni GOST talablariga javob berishini davlat tomonidan nazorat qilinishini yanada kuchaytirish; oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashda an'anaviy va zamonaviy uyg'unlashgan usullari orqali ishlov berish yo'llarini ya'ni tabiiy bo'yoqlar, ranglar, ishtahani oshiruvchi, xushbo'y hidli, organizmga salbiy ta'siri bo'lmagan tabiiy efir moylari bilan ishlov berish yo'llarini kengaytirish lozim.

18. Oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini ta'minlashda kimyoviy tadqiqotlarning o'rnini oshirish. Ushbu yo'lda qishloq xo'jaligi ekinlarini kimyoviy o'g'itlash jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish. O'zgargan iqlim-tuproq sharoitida kimyoviy o'g'itlashning yangi me'yorlarini ishlab chiqish uchun fundamental tadqiqotlarni kengaytirish

19. O'zbekiston qurg'oqchil mintaqalarida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda kadrlar salohiyatini oshirish istiqbollarini ishlab chiqish va joriy etish. Buning uchun rivojlangan mamlakatlar bilan kadrlar almashinuvi va ilmiy stajirovkalarni tashkil qilish. Xorijning qurg'oqchil mintaqalarida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash borasidagi ilg'or tajribalarini joriy etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish

Doktorantlar va magistrantlarning ilmiy tadqiqot ishlariga ilmiy rahbarlik qilish va qisqa muddatli stajirovkalarni tashkil qilishda Italiyaning Boloniya universiteti, Moskva davlat universiteti, Novosibir davlat texnika universiteti bilan o'zaro hamkorlik qilishga kelishildi va ushbu hamkorliklar doirasida Qirg'izistonning O'sh davlat universiteti bilan hamkorlik shartomasi tuzildi.

**“Oziq-ovqat xavfsizligi: Global va milliy muammolar» (Food Security: Global and national Problems)”**  
nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya fotolavhalari






**Ojima Denis**, b.f.d., professor, O Kolorado universiteti professori, (AQSh)



**Aynas Aydarxan**, Pekin Texnologiya va biznes universiteti professori, (Xitoy)



**Yekaterina Litvinova**, b.f.n. dotsent, Novasibir davlat texnika universiteti dotsenti (Rossiya)



**Daniyelo Alberoni**, Italiyaning Boloniya universiteti professori (Italiya).

**Prorektor**



**A.R. Axatov**